



DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA QABUL QILISH SHARTLARIDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA QABUL QILINISHI MUMKIN BO'LMAGAN HOLATLAR

S.Xamdamova

Toshkent davlat agrar universiteti Xodimlar
bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i
Tel.: +998999829988
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17405169>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 21-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

*Davlat fuqarolik xizmati, og'ir,
o'ta og'ir jinoyatlar,
sudlanganlik holati
tugallanmaganligi yoki olib
tashlanmaganligi, davlat
xizmatchisi..*

ABSTRACT

Davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo'naltirish, aholining davlat xizmatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish, sohaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

So'nggi yillarda davlat fuqarolik xizmati tizimining huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslarini belgilash, sohaga doir qonun hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarning olib borilishi natijasida davlat organlarida xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatli organ — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi, davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, davlat fuqarolik xizmatiga kirish, uni o'tash va tugatish tartibi belgilandi, davlat fuqarolik xizmatiga munosib kadrlarni tanlov asosida qabul qilish tizimi joriy qilindi hamda mazkur tizim raqamlashtirilib, «vacancy.args.uz» elektron platformasi ishga tushirildi. Bu o'z navbatida byurokratik to'siqlarni qisqartirib, ishga qabul qilishda so'raladigan ortiqcha hujjatlarni talab qilish bekor qilinishiga olib keladi, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sohasini raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo'yicha «hrm.args.uz» elektron platformasi ishga tushirilib, davlat fuqarolik xizmatchilarining yagona markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

O'rganish natijasida, xususan o'zbek olimlari E.T.Xojiyev, G.S.Ismailova, M.A.Raximovalar tomonidan tayyorlangan «Davlat xizmati» nomli o'quv qo'llanmada:

– birinchidan, ijtimoiy ma'noda. Davlat xizmati ijtimoiy kategoriya bo'lib, davlat tashkilotida ma'lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko'rsatmasiga ko'ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish;

– ikkinchidan, siyosiy ma'noda. Davlat xizmati davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, davlatning maqsad va vazifalariga barcha mavjud siyosiy kuch orqali erishadi, jamiyatdagi muvozanatni ta'minlaydi;

– uchinchidan, huquqiy ma'noda. Davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy o'rnatish bo'lib, bu orqali mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishi ta'minlanadi. Davlat xizmati murakkab ijtimoiy-huquqiy institutlardan biri bo'lib, uni o'rganish davlat xizmatining ijtimoiy va huquqiy asoslarini tahlil qilishni talab qiladi. Bu institut davlat-xizmat munosabatlarini tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat bo'lib, u orqali xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari, ularga belgilanadigan cheklovlar, javobgarlik hamda davlat xizmatini o'tash, xizmat munosabatlarining yuzaga kelishi va bekor bo'lishi tartibga solinadi;

– to'rtinchidan, tashkiliy ma'noda. Davlat xizmati davlat apparatining tashkiliy-funksional elementlari bilan aloqada bo'ladi. U quyidagi elementlardan tashkil topgan tizim sifatida namoyon bo'ladi: davlat apparati faoliyatining tashkiliy va protsessual asoslarini tashkil etish; lavozimlarning tuzilishi va huquqiy ko'rinishi; xodimlarni aniqlash, baholash. Davlat xizmati davlatni, davlat hokimiyatini mustahkamlaydi va fuqarolik jamiyatining bir me'yorda faoliyat yuritishini ta'minlaydi – deb ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, hamma davlat xizmatchilari ham davlat fuqarolik xizmatchilari bo'lmaydi. Misol tariqasida, Qonun chiqaruvchi organ hisoblangan – Oliy Majlisdagi senatorlar, deputatlar va undagi boshqa xodimlar ham davlat xizmatchilari, Sud hokimiyati va sud tizimidagi sudyalari, suddagi boshqa xodimlar davlat xizmatchilari, biroq davlat fuqarolik xizmatchisi hisoblanmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xodimlar davlat xizmatchilari, lekin ular ham davlat fuqarolik xizmatchilari emas (Adliya vazirligi reestrda borligi uchun adliya organlarini hisobga olmaymiz).

Davlat fuqarolik xizmatchilari deganda ijro etuvchi hokimiyat hisoblangan Prezident administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Prezident administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar va boshqa davlat organlaridagi hamda hokimliklardagi xodimlarni tushunamiz.

Shunda ham bu organlardagi faqat Davlat fuqarolik xizmati lavozimlari reestriga kiradigan lavozimlarda ishlayotgan xodimlar davlat fuqarolik xizmatchilari hisoblanadi. Reestrda kirmagan lavozimda ishlayotganlar, davlat fuqarolik xizmatchisiga kirmaydi.

Xususan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun bo'yicha faqat davlat fuqarolik xizmatchilariga qo'yilgan ta'qiq va cheklovlar boshqa davlat xizmatchilariga tegishli emas. Xuddi shunday, faqatgina davlat fuqarolik xizmatchisi uchun belgilangan imtiyoz va kafolatlar ham boshqa davlat xizmatchilariga tegishli bo'lmaydi.

Davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo'naltirish, aholining davlat xizmatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish, sohaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish, shuningdek, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka

yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmoni qabul qilindi.

Bizga ma'lumki, davlat fuqarolik xizmatidagi lavozimlar tahlili va kompetensiya modelining mavjud emasligi tegishli lavozimlarga eng munosib kadrlarni to'g'ri tanlab olish, shuningdek, xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan holatlar davlat fuqarolik xizmatida hal etilishi kerak bo'lgan masalalardan bir bo'lib hisoblanadi.

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunga asosan davlat fuqarolik xizmatiga davlat tilini biladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga va boshqa talablarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi. Misol uchun "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasi Davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish shartlarida (3-qismi 6-xatboshisiga ko'ra) og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinishi mumkin emasligi belgilangan.

Biroq, davlat fuqarolik xizmatidagi rahbarlar ushbu moddani davlat fuqarolik xizmatchisi yoki ishga kirmoqchi bo'lgan nomzodga qo'llashdan oldin quyidagilarga e'tibor qaratishlari kerak bo'ladi:

haqiqatda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganligiga;
sudlanganlik holati tugallanmaganligi yoki olib tashlanmaganligiga;

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni kuchga kiringunga qadar ishga qabul qilinganligiga.

Agar xodim mazkur Qonun kuchga kirishdan oldin ishga qabul qilingan bo'lsa, ushbu normani qo'llab bo'lmaydi, chunki norma faqat ishga qabul qilishda qo'llanilishi lozim. Agar xodim Qonun kuchga kiringandan keyin ishga qabul qilingan bo'lsa, unda ishga qabul qilishda qoida buzilgan deb baholanishi mumkin. Jinoyat kodeksining 15-moddasiga ko'ra, og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 77-moddasiga ko'ra sudlanganlik shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir. Jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan deb hisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 78-moddasiga ko'ra shaxsning sudlanganlik holati quyidagi paytlarda tugallanadi:

- a) shartli hukm qilinganlarga nisbatan — sinov muddati tugagan kundan boshlab;
- b) majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab chiqqach;
- v) jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan keyin 1 yil o'tgach;
- g) ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin — 2 yil o'tgach;
- d) 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — 4 yil o'tgach;

ye) 5 yildan ortiq, lekin 10 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — 7 yil o'tgach;

j) 10 yildan ortiq, lekin 15 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — 10 yil o'tgach.

“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonunning 28-moddasiga ko'ra, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilish mumkin emasligi belgilangan. Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etib, qonunda 5 yildan ortiq, lekin 10 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi (Jinoyat kodeksining 15-moddasi).

Demak mazkur normasidan kelib chiqadiki, qasddan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning sudlanganlik muddati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan bo'lsa, ularni davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilish mumkin emas.

Sudlanganlik holati tugallanganligi Jinoyat kodeksi bo'yicha 5 yildan ortiq, lekin 10 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan va qasddan sodir etilgan jinoyatni og'ir jinoyat deb hisoblasak, Jinoyat kodeksining 78-moddaning “e” bandiga asosan bunday jinoyatlar bo'yicha jazo o'tab bo'linganidan keyin 7 yil o'tgach, sudlanganlik holati tugallangan hisoblanadi. O'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha esa, Jinoyat kodeksining 78-moddaning “j” bandi bo'yicha jazo o'talgach (10 yildan ortiq, 15 yildan ko'p bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talgach) 10 yildan keyin sudlanganlik muddati tugagan hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilish mumkin yoki mumkin emaslikni belgilasa bo'ladi.

Sudlanganlikni olib tashlanganligi Jinoyat kodeksining 79-moddasiga asosan alohida hollarda sudlanganlik muddatidan oldin ham olib tashlanishi mumkin. Sudlanganlikni olib tashlash mahkumning yashash joyidagi jinoiy ishlar bo'yicha sudlarning ajrimi bilan amalga oshiriladi. Demak, og'ir va o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlikni olib tashlash haqidagi sud ajrimini taqdim etgan shaxsni davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilish mumkin. Jinoyat kodeksining 79-moddasiga ko'ra sudlanganlik sud tomonidan olib tashlanishi yoki afv etish yoxud amnistiya akti asosida olib tashlanishi mumkin.

Foydalanilgani adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/111453>
3. “Davlat fuqarolik xizmati” to'g'risidagi qonun <https://lex.uz/uz/docs/6145972>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-95-son farmoni <https://www.lex.uz/docs/7587464>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi
6. ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son farmoni <https://www.lex.uz/docs/6600413#6605157>
7. Xojiev E.T., Ismailova G.S., Raximova M.A. Davlat xizmati: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Baktريا press, 2015. – 9 b.